



**FORMATION OF INTERCULTURAL COMMUNICATION COMPETENCE IN
PRESCHOOL CHILDREN**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10115942>

Ishanjanova Munosibkhan

Associate Professor of Andijan State Institute of Foreign Languages

Abdullayeva Mumtoza

Student of Andijan State Institute of Foreign Languages

Abstract

This article covers the issues of formation of communication competence in preschool children and inculcation and development of country, culture, language ties through games.

Keywords

communication, culture, games, practical activities

**MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARDA MADANIYATLARO
MULOQOQT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTISH**

Ishanjanova Munosibxon

Andijon davlat chet tillari instituti dotsenti

Abdullayeva Mumtoza

Andijon davlat chet tillari instituti talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot kompetensiyasini shakllantirish va mamlakat, madaniyat, til bog'liklarini o'yinlar orgali singdirish va rivojlantirish masalalri yoritilgan.

Kalit so'zlar

muloqot, madaniyat, o'yin, amaliy faoliyat

Hozirgi jadal rivojlanayotgan zamonda insonlar hamkorlik qilish borasida madaniyatlararo tafovutlarga duch kelmoqda. Bu tilning madaniyat bilan chambarchas bog'liqligi va uni o'rganishga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirib chiqaradi. Madaniyatlararo muloqot muvofaqqiyati til bilan bog'liq ekan, tilning ko'nikmalarini mukammal egallash va ona tili va ingliz tilini o'rganishda madaniy farqlarni o'zlashtirish talab etiladi.


Chet tilini o'qitishda madaniyatlararo yondashuv uni o'rgatish asosini tashkil etadi. Ta'limning boshlang'ich darajasida madaniyatlara kompetensiyani shakllantirish bolani kelajakda yuqori darajada jamiyatga moslashish imkoniyatini beradi. Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilariga, nafaqat, bilim beruvchi mashg'ulotlar, balki kattalarni hurmat qilish, madaniyatlarni hurmat qilish singdirib boriladi.

Boshqa xalq madaniyati va tarixini o'rgatib boorish bolaga tez o'zgaruvchan zamonga moslashuvchanlik qobiliyatini shakllantiradi.

Biroq, bugungi kunda maktabgacha ta'lim uchun madaniyatlara kompetensiyani shakllantirish uchun usullar, har bir bosqich uchun standartlar yetarli emas. Chet tilini o'rgatishda, albatta, o'sha til mamlakatining o'ziga xos tomonlari o'rgatilishi ahamiyatlidir. Ingliz tilini o'rgatishda, avvalo, ushbu kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish eng samarali usul ekanligini aytib o'tish joiz.

Madaniyatlara kompetensiya maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarida o'yinlar, ertaklar orqali shakllantirilishi ma'lumdir. Olimlar uni turli talqinlarini keltiradilar. Ilmiy adabiyotlarda ushbu holatdagi bog'liqlik keltiriladi [1]:

Til



Ushbu chizmaga asosan til, mamlakat, madaniyat bilimlari birlashsagina kompetensiya shakllanadi va rivojlanadi. M.Bayram, L.Korneeva, K.Knapp, N.Gnez, N.Galskova, A.Sadoxin va boshqa ko'plab olimlar bilimlarni birlashtirib xorijiy til o'rgatish maqsadli ekanligini ta'kidlaydilar.

Madaniyatlara kompetensiya muloqotga natijaga erishishda bilim, ko'nikma va fazilatlar mujassamlshganda amalga oshishi kuzatiladi.

Madaniyatlara kompetensiyaning quyidagi tuzilishi shakllantirilgan:

- 1) Kognitiv component o'z mamlakatining ham, o'rganilayotgan tilning ham madaniy xususiyatlarini bilishni o'z ichiga olgan bilim tizmini nazarda tutadi,
- 2) Faoliyat komponentini shakllantirishda o'z bilimlarini yangi madaniyatga moslashtirish uchun ko'nikma va malakalarni beradi, bunda og'zaki nutqda o'zaro tasir qilish vositalarini qo'llay oladi.
- 3) Shaxsiy komponent, bunda bag'rikenglik, vatanparvarlik, hamdo'stlik kabi xislatlar shallanadi.



Mazkur yondashuvlar bolada muloqot va madaniyatlarni kompetensiyani ma'lum darajada shakllanishida imkoniyatlarini kengaytiradi. Oyin texnologiyalaridan foydalanish bolani nutqini rivojlantirish va kompetensiyalarni shakllantirishda ijodiy va qiziqarli muhitni yaratib beradi [2].

Turli xil o'yinlardan foydalanish darslarni o'tkazishda o'qitish komponentlarining ratsional va hissiy birlashishga yordam beradi. O'yinlarni qo'llash boshqa narsalar qatori kompensatsiya qilishga imkon beradi, shuningdek, axborotning haddan tashqari yuklanishi, tashkil etish tarbiyalanuvchilar uchun psixologik yengillik rejimini yaratish orqali maqsadga erishishga, muloqot bilimlari va ko'nikmalarini yaxshiroq o'zlashtirishga, yordam beradi. O'qituvchining malaka darajasiga yuqori talablarni qo'yilishi o'yinlarni darsda ijodiy yaratishga, bir vaqtning o'zida qulay muhit muayyan aloqa vaziyatlarida muammolarni hal qilish yo'llarini ko'rsatishga imkon beradi.

O'yin bolalarda atrofdagi voqelikka munosib munosabatni shakllantiradi, kognitiv jarayonlarni; diqqat, fikrlash, xotira faollashtiradi. O'yinning ba'zi shakllarini qo'llash mumkin bo'lgan tadbirlarni ko'rib chiqsak:

1) Simulyatsiya o'yinlari hamkorlik, raqobat kabi elementlarni birlashtiradi. Bunday o'yinlar orqali ishtirokchilari jamoada ishlash qobiliyatini baholashlari mumkin, bunda analitik, etakchilik va boshqa ishbilarmonlik fazilatlarini namoyish etiladi.

2) Rolli o'yinning mohiyati bolaning harakatlari o'yin vazifasiga mos keladi, bunday o'yinlar aynan atrofdagi dunyoga boshqasining ko'zlari bilan qarash qobiliyatini rivojlantiradi.

3) Biznes o'yinining pedagogik va didaktik ahamiyati shundaki, u ishtirokchilarga o'zlarini ochib berishga faol hayotni egallashni, kelajakni tanlovi to'g'risida qaror qabul qilish kabilarga imkon beradi.

4) Biografik refleksiya ostida o'z-o'zini anglash yotadi, bunda tarjimaiy hollar, kundalik hayotni tasvirlash, tengdoshlari hayotini taqqoalshni chet tilida namoyon qila olishi tushuniladi.

Chet tillarini o'qitish ko'nikmalarni amaliy qo'llashga qaratilgan. Ya'ni uning shakllanishi kommunikativ kompetentsiya har qanday vaziyatda kommunikativ maqsadiga erishishni o'z ichiga olishi nazarda tutiladi. Darslarni modellashtirish mehmon bo'lishi mumkin bo'lgan vaziyatlar, boshqa mamlakatga sayohat, ekskursiya va hokazolarda rol o'ynash va o'yin, tanlovlar, viktorinalar o'tkazishda ko'rinadi. O'yin texnikasi an'anaviy metodologiyaga nisbatan yuqori darajani ta'minlaydi.

Mashg'ulotni o'quv vositalari bilan ta'minlash quyidagicha faollikni oshiradi:

a) talabalar tomonidan bajariladigan vazifalarning motivatsiyasi;

b) nutq faoliyatining har xil turlaridan foydalanish-dialog, monolog, polilog;



- d) vizual materiallardan foydalanish, teatrlashtirish;
- e) yangi materialning boyitilganligi;
- f) lug'at boyligi;
- i) kognitiv guruh faoliyati;
- k) tabaqalashtirilgan yondashuv;
- l) mashg'ulotda qulay va ijodiy muhit.

Mashg'ulot davomida talabning har bir harakati darsning maqsadiga mos kelishi va rag'batlantirilishi kerak:

1) Bunda o'qituvchi, nafaqat, mavzu bo'yicha savollar berishi, balki yulduzlardan intervyu olish, do'stidan intervyu olish kabilarda bolalarni sinab ko'rishi zarur,

2) Tabriklar va tabrik otkrikalarini yaratish tartibga solish, ularni konvertlarga joylashtirish va do'stlarga berish kabi rag'batlar shakllantiriladi.

Xulosa qilsak, maktabgacha yoshdagi bolalarga madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish o'yinlar orqali samarali kechishi tahlillar natijasini hosil qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Guseynova L. A. Mezhekul'turnyy podkhod k prepodavaniyu inostrannogo yazyka (na opyte nemetskogo kak inostrannogo) : dis. ... kand. ped. nauk. – M., 2004. – 145s.

2. Alesina E. V. Uchebnye igry na urokakh angliyskogo yazyka // Inostrannye yazyki v shkole. – 1987. – № 4. – S. 66-67

3. <file:///formirovanie-mezhkulturnoy-kompetentsii-posredstvom-igrovyyh-tehnologiy-na-urokah-angliyskogo-yazyka-nachalnyy-etap.pdf>

4.